



**BALIQ GO'SHTINI VETERINARIYA SANITARIYA JIXATDAN
BAXOLASH**

¹Ibragimov Farxod Moripovich,

²Suyunov Rashid Uktamovich,

³Ilyosov Zafar Ilyos o'g'li

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7544267>

ARTICLE INFO

Received: 09th January 2023

Accepted: 16th January 2023

Online: 17th January 2023

KEY WORDS

*Bulyon, perioksidaza, polipepid,
ekstrakt, benzidin, to'qima,
pepton.*

ABSTRACT

*Ushbu maqolada bozorga chiqarilgan baliq go'shtini
sifati, tovarlilik va iste'mol jihatdan yaroqliligini
baholash, veterinariya sanitariya ekspertiza usullari
yordamida tekshirish natijalari keltirilgan.*

Kirish. Respublikamizda olib borilayotgan keng islohatlar qishloq xo'jaligiga qaratilgan bo'lib, muhim yo'nalishlaridan biri sifatida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, baliqchilik tarmog'ini rivojlantirish va kooperativ baliq yetishtirish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari ishlab chiqishga yo'naltirilgan. Respublikamiz Prezidentining "Baliqchilik sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi qarorida Respublikada baliqchilik tarmog'ini jadal rivojlantirish, baliq mahsulotlari ishlab chiqarishning zamonaviy va innovatsion uslublarini joriy etgan holda hajmlarini oshirish, sohani tartibga solish bo'yicha bir qator qonun hujjatlari qabul qilinib, ularning ijrosini sifatli va puxta ta'minlash choralari ko'rilmoqda. Ishlab chiqarishni hajm jihatdan ko'tarish bilan birga sifat jihatdan yuqori darajaga yetkazish ishlarini olib borish bo'yicha topshiriqlar berilgan. Yuqoridagilarni inobatga olib bozorlarga chiqariladigan baliq go'shtining ozuqaviy qiymati, baliq go'shtini qayta ishlashda veterinariya-sanitariya nazorati, yuqumli kasalliklarda baliq go'shtining veterinariya sanitariya ekspertizasi, invazion kasalliklarda baliq go'shtining veterinariya sanitariya ekspertizasi, baliq go'shtidan tayyorlangan kolbasa va konserva mahsulotlarini ekspertiza jihatdan baholashning usullarini ishlab chiqish, ilmiy tadqiqotlarda uni asoslash dolzarb masala hisoblanadi.

Respublika aholisini oziq-ovqat mahsulotlari bilan barqaror ta'minlash hamda chorvachilik va uning tarmoqlarida ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirish baliq go'shtining tavsiya etilgan minimal iste'mol normalarini qayta ko'rib chiqish hamda intensiv baliqchilik xo'jaliklarini tashkil etish hisobiga kooperatsiya tizimini joriy etish va qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish choralari ko'rish shuningdek, aholining sog'lom ovqatlanish madaniyatini oshirish kabi vazifalarni tadqiqotlarimiz davomida o'rganib boramiz.

Material va metodlar. Tadqiqotlarimizni siyob dehqon bozori veterinariya sanitariya ekspertizasi laboratoriyalarida hamda Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti veterinariya sanitariya ekspertizasi laboratoriyasida olib bordik. Dastlab turli partiyadagi baliq go'shtlari organoleptik tekshirilib,



siyob dehqon bozoridan sotuvdagi baliqlardan 6 ta namunalar olinib laboratoriyada tekshirildi. Laboratoriyada baliqlarni yangiligini tekshirishda fiziko-kimyoviy tekshirishlardan A.M.Poluektova bo'yicha perioksidaza reaksiyaning mohiyati shundaki, peroksidaza fermenti ta'sirida vodorod peroksid tezda suv va kislorodga parchalanadi. Kislorod benzidinni oksidlaydi, birikma hosil bo'ladi, u oksidlanmagan benzidin bilan birikib, moviy-yashil rangdan jigarrang rangga o'tadigan modda hosil bo'ladi, polipeptidlarga reaksiya-baliq go'shti buzulganda, unda oqsilning dastlabki parchalanish mahsulotlari - bulyonda og'ir metall tuzlari bilan polipeptidlar, peptonlar va erkin aminokislotalar cho'kmaga tushadi, go'sht tarkibidagi uchuvchan gazlarni jumladan vodorod sulfid-vodorod sulfidining to'planishi ko'pincha anaerob sharoitida oqsillarni parchalanishi paytida ro'y beradi. Biroq, vodorod sulfidini aniqlashning odatdagi usuli juda sezgir emas. Eng to'g'ri va yaxshi natijalar maydalangan baliq go'shtini 50-52 ° gacha qizdirilganda olinadi, ammiak gazlarini aniqlash-buzulgan baliqlardan ajralib chiqadigan erkin ammiak, Eber reaktivining tarkibiga kiruvchi xlorid kislota bilan o'zaro ta'sirlashib, ammoniy xlorid hosil qiladi, bu esa yaqqol ko'zga ko'rinadigan oq bulutni hosil qiladi. Yuqoridagi usullaridan foydalanib tekshirish ishlari olib borildi. Tekshirish ishlari O'zstandart agentligining 2020-yil 25-dekabrda TP-19 sonli "Baliq va baliq oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizligi to'g'risidagi maxsus texnik reglament" asosida olib borildi.

Natijalar va ularning tahlili. Tadqiqotlarimizning dastlabki bosqichida siyob dehqon bozoridagi 6 ta partiyadan olingan baliq go'shti namunalari tekshirildi va quyidagicha natijalar olindi. Organoleptik tekshirish natijalariga ko'ra 1^a 2^b 5^e 6^m namunalari o'ziga xos hidli, shaffof shilimshiq modda, qon va begona hidlarsiz, tangachalarning butunligi buzulmagan yaltiroq, tanaga mahkam yopishgan, terisi elastik, begona dog'larsiz, jabra ranglari qizg'ish, jabra qopqoqlari jabra bo'shlig'ini mahkam yopib turadi, ko'z shox pardasi shaffof, mushak to'qimasi kesilgan joyida elastik, suyaklarga mahkam tutashgan. 3c va 4^d namunalarda mushak to'qimalari yumshoq, suyaklardan osongina ajralishi kabi eski baliq belgilari mavjudligi aniqlandi. Perioksidaza reaksiyasi natijalariga ko'ra 3c va 4^d namunadan tayyorlangan ekstrakt rangi ko'kish rang hosil bo'lmasdan birdan jiggarrang tusga kirdi. Reaksiya manfiy demak jabrada oksidlanish jarayoni juda tez borib, qon orqali kelayotgan peroksidaza fermentining faollik darajasiga yuqoriligi haqida fikr yuritish mumkin. Quyidagi partiyalardan olingan namunalarda 1^a 2^b 5^e 6^m reaksiya musbat bo'lib ko'kish rang hosil bo'lib 3-4 daqiqadan so'ng yo'qolganini ko'rishimiz mumkin. Perioksidaza fermenti faol bo'lsa oksidlanish jarayonlari tez kechadi, bir qancha oksidlangan moddalar hosil bo'ladi.

Tadqiqotlarimizning keyingi bosqichida polipeptidlarga reaksiya o'tkazilib quyidagicha natijalar olindi: 1^a 2^b 5^e 6^m namunalarda reaksiya manfiy bo'lib ekstrakt tiniqligini ko'rishimiz mumkin. 3c va 4^d namunadan tayyorlangan ekstrakt paxtasimon moddaga o'xshash cho'kma hosil bo'ldi. Reaksiya musbat demak oqsilning dastlabki parchalanishi mahsulotlari - bulyondan og'ir metall tuzlari bilan polipeptidlar, peptonlar va erkin aminokislotalar cho'kmaga tushgan deb qarashimiz mumkin. Tekshirishlarimiz davomida tajribadagi baliq go'shti tarkibidagi gazlarni aniqlash uchun reaksiyalar o'tkazdik. O'kazilgan reaksiyalar natijasida 3c va 4^d namunadan olingan go'shtlar tarkibida vodorod sulfid gazi borligi aniqlandi. Qolgan barcha namunalarda uchuvchi gazlar miqdori aniqlanmadi.



Xulosalar. Tadqiqot natijalaridan ko'rinib turibdiki sotishga chiqarilgan namunalardan 2 ta namunada baliqning tavorliligi past ekanligi, eskirganligi, iste'molga yaroqsizligi aniqlandi. Bunday baliq mahsulotlarini sotish taqiqlanadi.

Bozorlarda baliq va baliqdan olinadigan mahsulotlarni veterinariya sanitariya ekspertizasi tekshiruvidan o'tkazilishini tizimli yo'lga qo'yish talab etiladi.

Iste'molga chiqarilayotgan barcha baliq turlari va baliqlardan olinadigan mahsulotlar veterinariya sanitariya tekshiruvidan o'tkazilishi va iste'molga yaroqsiz mahsulotlar realizatsiyasiga taqiq qo'yilishi shart.

References:

1. Achilov, O., Ibragimov, F., Boysinova, N., & Abdurakhmanova, N. (2021). Impact of echinococcosis on beef quality in Uzbekistan. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(5), 260-268.
2. Boysinovna, B. N., Bo'riyevich, I. F., & Shuxratovna, A. N. (2021). The effect of probiotics on veterinary and sanitary assessment of broiler chickens meat. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(10), 845-849.
3. Yunusov, K., & Achilov, O. (2022). INSPECTION OF MEAT PRODUCTS AND IMPROVEMENT OF CONTROL AT THE SLAUGHTERHOUSE. *Journal of new century innovations*, 17(4), 155-162.
4. Yunusov, K., Achilov, O., & Ibragimov, F. (2022). VETERINARY SANITARY EVALUATION OF CATTLE INFECTED WITH ECHINOCOCCOSIS. *AGROBIOTEKNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI*, 62-69.
5. Ачиллов, О., Ибрагимов, Ф. Б., Рузимов, М., & Асомиддинов, У. (2022). ЭХИНОКОККОЗ БИЛАН ЗАРЛАНГАН ҚЎЙ ГЎШТИНИ ВЕТЕРИНАРИЯ-САНИТАРИЯ ЭКСПЕРТИЗАСИ. *AGROBIOTEKNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI*, 70-73.
6. Bo'riyevich, I. F., & Shukhratovna, A. N. (2022). CHEMICAL INDICATORS OF SHEEP MEAT INFESTED WITH ECHINOCOCCOSIS. *Academicia Globe: Inderscience Research*, 3(03), 9-11.
7. Ибрагимов, Ф., Насимова, Д., & Рахматов, Ж. (2022). Asal tarkibidagi diastoz fermentini aniqlash. *Перспективы развития ветеринарной науки и её роль в обеспечении пищевой безопасности*, 1(1), 132-134.
8. Boysinovna, B. N., Bo'riyevich, I. F., & Shuxratovna, A. N. (2021). The effect of probiotics on veterinary and sanitary assessment of broiler chickens meat. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(10), 845-849.
9. Ibragimov, F. B., Duskulov, V. M., & Rakhimov, Y. M. (2021). Effect of apiflox preparation against infectious diseases of bees. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(5), 611-614.
10. Ибрагимов, Ф. Б. (1991). Бовисный цистицеркоз и усовершенствование мер борьбы с ним (Doctoral dissertation, Самаркандский сельхоз. ин-т).
11. Ibragimov, F. B., Duskulov, V. M., & Rakhimov, Y. M. (2021). Effect of apiflox preparation against infectious diseases of bees. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(5), 611-614.



12. Дускулов, В. М., & Расулов, У. И. (2013). Современные методы терапии и профилактики пироплазмидозов крупного рогатого скота. Ветеринарна медицина, (97), 379-380.
13. Расулов, У. (2022). Қашқадарё ва сурхондарё вилоятлари худудларида қорамоллар пироплазмидозларини тарқатувчи каналар фаунаси. Перспективы развития ветеринарной науки и её роль в обеспечении пищевой безопасности, 1(2), 437-441.
14. Rasulov, O' I., Bobonazarov, E., & Ilyosov, Z. I. (2021). MEASURES TO PROTECT BREEDING AND PRODUCTIVE CATTLE FROM PYROPLASMIDOSIS. World Bulletin of Public Health, 5, 17-18.
15. Rasulov, O' I. (2021). Measures to Protect Breeding and Productive Cattle From Parasitic Blood Diseases. Middle European Scientific Bulletin, 18, 22-23.
16. Rasulov, U. I., & Buronov, A. N. (2021). Protecting Livestock from Theileriosis. Eurasian Medical Research Periodical, 1(1), 28-30.
17. Расулов, У. И., Ибрагимов, Ф. Б., Камолов, Ф., & Собиров, М. (2021). Эпизоотология и распространение пироплазмидозов в Самаркандской области.
18. Дускулов, В. М., & Расулов, У. И. (2013). Современные методы терапии и профилактики пироплазмидозов крупного рогатого скота. Ветеринарна медицина, (97), 379-380.
19. Расулов, У. И. (1996). Терапия и профилактика трипаносомозов животных (экспериментальное исследование).
20. Расулов, О., Илёсов, З., Суюнов, Р., Расулов, Ш., & Хушназарова, М. (2022). Vozorlardagi go'shtning yangiligini aniqlash usullari. Перспективы развития ветеринарной науки и её роль в обеспечении пищевой безопасности, 1(2), 132-136.
21. Расулов, О., Илёсов, З., Суюнов, Р., Расулов, Ш., & Буронов, А. (2022). Qoramollarni teylerioz kasalligidan asraylik. Перспективы развития ветеринарной науки и её роль в обеспечении пищевой безопасности, 1(2), 129-131.
22. Расулов, Ш., Суюнов, Р., Илёсов, З., Исхакова, М., & Расулов, О. (2022). Qoramollar fassiolyozining epizootologik holati va go 'shtning xavfsizligi va sifat ko'rsatkichlari. Перспективы развития ветеринарной науки и её роль в обеспечении пищевой безопасности, 1(2), 124-128.
23. Суюнов, Р., Илёсов, З., & Расулов, Ш. (2022). Сут ва сут маҳсулотларидан наъмуналар олиш ва уни ветеринария санитария жиҳатдан баҳолаш. Перспективы развития ветеринарной науки и её роль в обеспечении пищевой безопасности, 1(2), 119-123.
24. Murodov, S., Xolikov, S. F., & Po'latova, N. M. (2022). TOVUQ TUXUMNI EKSPERTIZASI VA ORGANOLEPTIK USULIDA TEKSHIRISH. AGROBIOTEKNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI, 498-500.
25. Jabborov, G' G'. (2022). Ectoparasites of Sheep, Their Treatment and Prevention Measures. European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630), 14, 91-95.
26. Ibragimov, F. M., & Bo'ronov, A. N. (2022). TURLI OZUQALAR BERIB BOQILGAN QUYON GO'SHTINING SIFAT TAXLILI. AGROBIOTEKNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI, 102-105.



27. Ибрагимов, Ф., Насимова, Д., & Рахматов, Ж. (2022). Asal tarkibidagi diastoza fermentini aniqlash. Перспективы развития ветеринарной науки и её роль в обеспечении пищевой безопасности, 1(1), 132-134.
28. Расулов, О., Илёсов, З., Суюнов, Р., Расулов, Ш., & Хушназарова, М. (2022). Bozorlardagi go'shtning yangiligini aniqlash usullari. Перспективы развития ветеринарной науки и её роль в обеспечении пищевой безопасности, 1(2), 132-136.
29. Расулов, О., Илёсов, З., Суюнов, Р., Расулов, Ш., & Бурунов, А. (2022). Qoramollarni teylerioz kasalligidan asraylik. Перспективы развития ветеринарной науки и её роль в обеспечении пищевой безопасности, 1(2), 129-131.
30. Jabborov, G., & Rayimqulov, I. X. (2022). QO'Y VA ECHKILARNING EKTOPARAZITLARI VA ULARGA QARSHI DORI VOSITALARINI SINOVDAN O'TKAZISH. AGROBIOTEKNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI, 86-89.
31. Расулов, Ш., Суюнов, Р., Илёсов, З., Исхакова, М., & Расулов, О. (2022). Qoramollar fassiolyozining epizootologik holati va go'shtning xavfsizligi va sifat ko'rsatkichlari. Перспективы развития ветеринарной науки и её роль в обеспечении пищевой безопасности, 1(2), 124-128.
32. Суюнов, Р., Илёсов, З., & Расулов, Ш. (2022). Сут ва сут маҳсулотларидан наъмуналар олиш ва уни ветеринария санитария жиҳатдан баҳолаш. Перспективы развития ветеринарной науки и её роль в обеспечении пищевой безопасности, 1(2), 119-123.
33. Do'skulov, V. M., Ibragimov, F. M., & Mamadullaev, G. X. (2022). QORAMOLLARDA TUBERKULOZ KASALLIGIDA OLINADIGAN MAXSULOTLARNING VETERINARIYA SANITARIYA EKSPERTIZASI. Journal of Integrated Education and Research, 1(7), 18-20.
34. Ибрагимов, Ф., & Арзимуродова, Р. (2022). Озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш давр талаби. Перспективы развития ветеринарной науки и её роль в обеспечении пищевой безопасности, 1(2), 369-374.